

---

## **BO'ZATOV TUMANI HOKIMI – RISHTONDA!**

Qoraqalpog'iston Respublikasining viloyatimizga birlashtirilgan Bo'zatov tumanida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu hamkorlik natijasida Bo'zatov tumani iqtisodiy ijtimoiy jihatdan rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonlarda Rishton tumani vakillari ham munosib hissa qo'shishmoqda. Xususan, Rishton tumanidagi tadbirkor Bahrom G'ofurov u yerda jundan gilam tuqishni yo'lga qo'ydi va samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Bugun Bo'zatov tumani hokimi Kamal Allaniyazov boshchiligidagi delegatsiya tumanimizda mehmon bo'ldi. Ushbu delegatsiyani tuman hokimi kutib oldi.

Tuman hokimligida o'tgan uchrashuvda ikki tuman o'rtasidagi hamkorliklarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari ko'rib chiqildi.

2023-02-09 16:54:21